

## ANATOMIK TERMINOLOGIYA-TIBBIY TA'LIMNING AJRALMAS QISMIDIR

*Xafizova Muxarram Nematilloeyvna*

*Osiyo xalqaro universiteti Klinik fanlar kafedrasida*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiyot terminologiyasi tili hisoblangan lotin tilini o'rganishning zaruriyatlari yoritilgan. Har bir soha vakili o'z kasbiy tilini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Shu jumladan bo'lajak shifokorlar ham kasbiy tilini yaxshi o'zlashtirish uchun lotin tilidagi anatomik, klinik va farmatsevtik terminlarni yoddan bilishi kerakligi uqtiriladi

**Kalit so'zlar:** lotin tili, tibbiy terminologiya, kasbiy til, fan-texnika

Ma'lumki, bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy tafakkurini oshirish uchun o'zlarining "kasbiy tili" lotin tilini chuqurroq o'rganishi muhimdir. Buning uchun lotin tilining fonetikasini, leksiko-grammatik xususiyatlarini mukammal bilishi va o'z ona tilidagi muqobillari bilan chog'ishtira bilishi, til hodisalarini o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarini to'g'ri bilishini taqozo etadi. Til hodisalarini tarjima yordamida tushunishi ularni puxta o'zlashtirilishini kafolatlaydi.

Lotin tili o'qituvchilarining asosiy maqsad va vazifasi- talabalarga lotincha tibbiy atamalar tarjimasining bazaviy qoidalarini o'rgatishdir. Shu bilan birga, o'qituvchilarning ona tiliga mos ravishda o'qitish metodikasini moslashtirishi kerak.

Lotin tili tibbiyot xodimlarining professional kasbiy tilidir, shuning uchun uni tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'rganishga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Lotin tilini bilish biologiya, normal va patologik anatomiya va fiziologiya, farmakologiya va klinik tsikl fanlari kabi fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun asos yaratadi. Shuning uchun, mening fikrimizcha, ushbu modulni o'rganish uchun o'quv dasturiga ajratilgan soatlar soni yetarli emas. O'ta mas'uliyatli va sharaflil kasb-shifokorlik kasbini puxta egallash uchun tibbiyot talabalari 1-bosqichdanoq lotincha tibbiy terminlarni yaxshi o'zlashtirishlari zarur bo'ladi. Lotin tilini o'rganish uning grammatikasi bilan tanishishdan boshlanadi. Talaba-yoshlarga lotin tili grammatikasini har tomonlama puxta o'rgatish hamda og'zaki va yozma shaklda tibbiy terminlarni to'g'ri talaffuz qilish(o'qish)ni o'rgatish-lotin tili o'qituvchilarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Har qanday til bu tug'ilgan tirik organizmdir, u yashaydi va o'ladi, ammo ularning ba'zilari uzoq umr ko'radi va hatto foydalanish doirasi va muloqotda cheklangan bo'lsa-da, ko'pgina sohalarda yashaydi. Ushbu tillardan biri - bu lotin tilidir. Garchi lotin tili "o'lik til" atalsa-da, tibbiyotda uning o'rni beqiyos. Lotin tili barcha klassik tillarning otasidir. Anatomik terminologiyaning asosi, farmakologiya, fiziologiya,

terapiya va boshqa barcha tibbiyot yo'nalishlarning tili hisoblanmish- lotin tili bugungi kungacha tirik ekanligi ajablanarli emas, o'zining g'ayrioddiy kontekstual va hissiy xilma-xilligi, barcha hind-evropa tillarning asosi ekanligi bilan ajralib turadi.

Lotin tilini mukammal egallash yana shunisi bilan ahamiyatliki, innovatsion texnologiyalar asrida tibbiyot, fan va texnikaning uzluksiz rivojlanishi, mamlakatimizga chet el tibbiy texnika va texnologiya vositalari kirib kelishi talaba-yoshlardan lotin tilini puxtaroq o'zlashtirishlarini taqozo etadi. Masalan: diagnostik tekshiruv usullari: MRT (magnit rezonans tomografiya), MSKT (multi spiralli kompyuter tomografiyasi), EFGDS (ezofagogastroduodenoskopiya), UTT (ultra tovush tekshiruvi), ECU (ekstrakorporal urug'lantirish) va boshqa shu kabi abbreviaturalarning ma'nolarini bilishi zarur.

Zamonaviy tibbiyot terminologiyasi eng murakkab terminologik tizimlardan biridir. Tibbiy atamalarning umumiy soni noma'lum - mutaxassislarning fikriga ko'ra, zamonaviy tibbiyotning terminologik fondi 500 ming tibbiy atamalardan oshadi. Agar bundan yuz yil avval bilimdon shifokor zamonaviy terminologiyani yaxshi bilgan bo'lsa, hozirda bir necha yuz ming tibbiy atamalarni o'zlashtirishning deyarli imkoni yo'q. Hatto ularni shunchaki yodlash ham hali hech kim uchun imkoni bo'lmagan, shuning uchun lotin tilida, boshqa tillarda bo'lgani kabi, ma'lum elementlardan atamalarni so'z yasash tizimi va qoidalarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Agar talabalar ushbu qoidalarni yaxshi o'zlashtirsa, yangi atamalarni tushunishni o'rganishi mumkin.

Lotin tili an'anaviy ravishda o'z qo'llanilishini topgan fan sohalari, shubhasiz, tibbiyot bilan bog'liq. Tibbiyot ta'lim muassasalarida Lotin tili va tibbiy terminologiya moduli uch asosiy terminologiya: anatomik, klinik va farmasevtik terminologiyadan iborat bo'limlarni o'z ichiga oladi. Tibbiyot terminologiyasining asosiy terminologiyasi- anatomik terminologiyadir, chunki talabalar o'qishining boshidan odam anatomiyasini, tana tuzilishini o'rganishni boshlaydi, tabiiyki, bu terminlar lotin tilida qabul qilingan, ya'ni anatomik terminologiya- tibbiy ta'limning ajralmas qismidir, chunki barcha anatomik atamalar parallel ravishda lotin tilida o'rganiladi. Bu yerda ikkita bo'lim ikki nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi:

1) - anatomiya nuqtai nazaridan ushbu atama bilan atalgan (chegara joylashgan joy, uning vazifalari) ob'ekt, anatomik shakllanish bilan haqiqiy bog'lanish uchun atama muhim ahamiyatga ega.

2) - Lotin tili nuqtai nazaridan atama til bilan (qanday urg'u, qo'shimcha, termin) bog'liq holda muhim ahamiyatga ega.

Tibbiyot institutlarining 1-bosqich talabalari o'z o'quv faoliyatlarining ilk kunlaridanoq lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'rganishni boshlaydilar. Tabiiyki, bu fan ular uchun yangi fan, shuning uchun ham lotin tilini o'rganish barcha tillarda bo'lganidek, alifboni o'rganishdan boshlanadi. O'zbek guruhlar alifboni rus guruhlariga taqqosan osonroq yodlaydi, faqat [c] harfi o'zbek alifbosida mavjud

bo'lmaganligi uchun shu harf qatnashgan atamalarni ba'zida xato talaffuz qilishi va orfografik xato yozishi mumkin, shuning uchun [c] harfi qatnashgan terminlarni ko'proq ularga doskada yozdirib, orfografik xatolarini topishini talab qilish mumkin, lekin ingliz tilini yaxshi bilgan talabalarga bu osonroq kechadi. Lotin orfografiyasi ham unchalik murakkab emas, chunki so'z qanday yozilsa, shunday o'qiladi. Taqqoslang: latina [latina], latin [laetin] - lotin tili va h. O'zbek tilimiz lotin yozuviga asoslangan til bo'lganligi va talabalar ingliz alifbosini bilganligi uchun lotin alifbosini o'rganish talabalarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Lotin tili harflari bilan tanishish: unli va undosh harf va tovushlar, digraph, diftong, harf birikmalari qatnashgan terminlarni to'g'ri talaffuz qilish, terminlarni urg'usini to'g'ri qo'ya olish va albatta lotin tilida ot, sifat, son kabi mustaqil so'z turkumlarining grammatik kategoriyalarini o'rganishdan boshlaydilar. Demak, lotin tili alifbosi, fonetikasi, lotin tili grammatikasi asoslari: ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlari, moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar, murakkab anatomik-gistologik terminlarni o'rganishni boshlash talabalarga odam anatomiyasi va gistologiya terminlarini bemalol tushunish imkoniyatini beradi va ular bu fanlardan ham yaxshi natijalarga erishadilar. Ayrim hamkasblardan farqli ravishda shuni ta'kidlamoqchiman, lotin tilini o'rganishda lotin grammatikasiga katta e'tibor qaratishimiz kerak. Mening fikrimizcha, lotin tilining asosiy tamoyillarini bilish talabalarning tahliliy qobiliyatlarini kengaytirishga, ularning tibbiy terminlarni o'rganishga bo'lgan xohishlarini qo'llab-quvvatlashga imkon beradi, o'z-o'zini tarbiyalash va olingan bilimlarni kengaytirish, ularning ijodiy salohiyatini chuqurlashtirish kabi maqsadlar zamonaviy ta'lim standartlarida aniq belgilangan. Asosiy nuqta – ba'zi harflar va harf birikmalarini to'g'ri talaffuz qilishni, shuningdek urg'u qo'yish qoidalarni o'rganishdan iborat. Talabalarga anatomik terminlarning tuzilish strukturasi, anatomik terminlarni o'rganishda lotin grammatikasi bilan tanishish, 2, 3, 4 so'zdan iborat anatomik terminlarni lotin tilidan o'zbek tiliga va aksincha o'zbek tilidan lotin tiliga to'g'ri, sifatli hamda tezda tarjima qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хафизова, М. Н. КРИТЕРИИ ОБУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ.
2. Bakayev, N. B., Shodiev, S. S., Khafizova, M. N., & Ostonova, S. N. (2020). SHAKESPEARS LEXICON: REASON WORD AS A DESIGN OF THE CONCEPT OF THE ABILITY OF THE HUMAN MIND TO ABSTRACTION, CONCLUSION. *Theoretical & Applied Science*, (6), 162-166.
3. Nematilloevna, X. M. (2024). UCH ASOSIY TERMINOLOGIK LUG'ATLARNING TILI. *PEDAGOG*, 7(1), 184-187.
4. Nematilloevna, K. M. The Easy Ways of Learning Medical Plants (Phytonyms) in the Department of Pharmaceutical Terminology. *JournalNX*, 7(06), 274-277.

5. Хафизова, М. (2023). ТРИ ЧАСТИ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12 Part 2), 134-138.
6. Хафизова, М. (2023). ПРОСТЫЕ СПОСОБЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ (ФИТОНИМОВ) В РАЗДЕЛЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 2), 193-198.
7. Nematilloeyvna, X. M. (2024). ANATOMİK TERMINOLOGİYA VO'LİMİDA LOTIN TİLİ SİFATLARINING MA'NO JIHATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(5), 47-54.
8. Nematolloeyvna, X. M. (2024). LOTIN TİLİ OT SO'Z TURKUMINING O'ZBEK GURUHLARDA O'RGANILISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 104-110.
9. Hafizova, M. (2024). LOTIN TİL AMALIY MASHG'ULOTLARIDA TERMIN, ATAMA VA İBORA SO'ZLARINING QO'LLANILISHI. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 1(1), 132-136.
10. Хафизова, М. Н. (2024). УПОТРЕБЛЕНИЕ ЛАТИНСКИХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В РАЗДЕЛЕ АНАТОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 16(2), 256-265.
11. Nematilloeyvna, X. M. (2024). LOTIN TİLİ MODULIDA SANOQ VA TARTIB SONLARNING QO'LLANILISH JIHATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 16(2), 249-255.
12. Khafizova, M. (2024). STUDING MEDICINAL PLANTS (PHYTONYMS) IN THE SECTION OF PHARMACEUTICAL TERMINOLOGY. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 4-7.
13. Nematillaevna, K. M. (2024). Aspects of the Usage of Cardinal and Ordinal Numerals in the Latin Language Module. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(3), 278-283.
14. Хафизова, М. Н. (2024). ПРИМЕНЕНИЯ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ В МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 34(3), 116-122.
15. Хафизова, М. Н. КРИТЕРИИ ОБУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ.
16. Nematilloeyvna, X. M., & Qilichovna, A. M. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL CHANGES IN ACUTE FORMS OF APHTHOUS STOMATITIS: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 177-186.
17. Nematolloeyvna, X. M. (2024). LOTIN TİLİ VA TİBBİYOT TERMINOLOGİYASI MODULIDA OT, SİFAT, SON VA FE'L SO'Z TURKUMLARINING LUG'ATDA BERILISH SHAKLLARINI O'RGANISH. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 3(4), 314-319.
18. Qilichovna, A. M. (2024). CLINIC FOR PATIENTS WITH DENTURES COMPARATIVE DIAGNOSIS AND PATHOGENESIS. *TADQIQOTLAR*, 30(3), 127-135.
19. Ahmedova, M. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF NUTRITIONAL DISPARITIES AMONG PEDIATRIC POPULATIONS: A STUDY OF CHILDREN WITH DENTAL CAVITIES VERSUS THOSE IN OPTIMAL HEALTH. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(12), 68-72.

20. Ahmedova, M. (2023). DIFFERENCES IN NUTRITION OF CHILDREN WITH DENTAL CARIES AND HEALTHY CHILDREN. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(12), 42-46.
21. Ахмедова, М. (2023). TISH KARIESINING KENG TARQALISHIGA SABAB VO'LUVCHI OMILLAR. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12), 200-205.
22. Ахмедова, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЭТАПАХ ДИАГНОСТИКИ И ПЛАНИРОВАНИЯ ОРТОПЕДИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЭНДОССАЛЬНЫХ ИМПЛАНТАТОВ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 2), 167-173.
23. Ahmedova, M. (2023). USE OF COMPUTER TECHNOLOGY AT THE STAGES OF DIAGNOSIS AND PLANNING ORTHOPEDIC TREATMENT BASED ON ENDOSSEAL IMPLANTS. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(11), 54-58.
24. Ахмедова, М. (2020). НАРУШЕНИЯ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ФУНКЦИИ ПРИ РАЗВИТИИ АФТОЗНОГО СТОМАТИТА. *Достижения науки и образования*, (18 (72)), 65-69.
25. Ahmedova, M. (2023). THE IMPACT OF SOCIOCULTURAL FACTORS ON THE PERVASIVENESS OF DENTAL CARIES AS A COMPLEX HEALTH CONDITION IN CONTEMPORARY SOCIETY. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(9), 24-28.
26. Ахмедова, М. К. (2024). ОБЩИЕ ПРИЧИНЫ КАРИЕСА ЗУБОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 77-85.
27. Qilichovna, A. M. (2024). CLINICAL SIGNS WHEN ACCOMPANIED BY DENTAL DISEASES AND METABOLIC SYNDROME. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 116-24.
28. Ахмедова, М. К. (2024). Профилактика Стоматологических Заболеваний У Беременных. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(3), 66-72.
29. Ахмедова, М. К. (2024). ОСНОВНЫЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ТКАНЕЙ ПАРОДОНТА У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 254-260.
30. Qilichovna, A. M. (2024). PREVENTION OF PERIODONTAL DISEASES IN CHILDREN AND TEENAGERS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 234-239.
31. Qilichovna, A. M. (2024). PREVENTION OF PERIODONTAL AND GUM DISEASES IN PREGNANT WOMEN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 240-245.
32. Qilichovna, A. M. (2024). HOMILADOR AYOLLARDA TISH VA PARADONT KASALLIKLARINING OLDINI OLISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 246-253.
33. Ахмедова, М. К. (2024). ИЗУЧЕНИЕ ПРИЧИННЫХ ФАКТОРОВ ПАРОДОНТИТА. *Journal of new century innovations*, 49(3), 47-53.
34. Qilichovna, A. M. (2024). TO STUDY THE FACTORS THAT CAUSE PERIODONTITIS. *Journal of new century innovations*, 49(3), 40-46.
35. Qilichovna, A. M. (2024). THE ROLE OF PATHOGENESIS IN THE GROWTH FACTORS OF PERIODONTITIS DISEASE. *Journal of new century innovations*, 49(3), 25-32.

36. Qilichovna, A. M. (2024). TISH KARIYESI BO'LGAN BOLALAR VA SOG'LOM BOLALARNING OVQATLANISHIDAGI FARQLAR. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 6(2), 213-223.
37. Ахмедова, М. К. (2024). РАЗЛИЧИЯ В ПИТАНИИ ДЕТЕЙ С КАРИЕСОМ ЗУБОВ И ЗДОРОВЫХ ДЕТЕЙ. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 6(2), 224-234.
38. Qilichovna, A. M., Nematilloevna, X. M., & Ergashevich, I. I. (2024). THE ROLE OF CARIOGENIC AND PROTECTIVE FACTORS IN THE PREVENTION OF CARIES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(8), 45-51.
39. Qilichovna, A. M., Nematilloevna, X. M., & Ergashevich, I. I. (2024). KARIYESNING OLDINI OLISHDA KARIOGEN VA HIMOYA OMILLARNING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(8), 52-59.
40. Qilichovna, A. M. (2024). FACTORS CAUSING THE WIDE SPREAD OF DENTAL CARIES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(4), 154-160.
41. Nematilloevna, X. M., & Qilichovna, A. M. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL CHANGES IN ACUTE FORMS OF APHTHOUS STOMATITIS: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 177-186.
42. Qilichovna, A. M., & Nematilloevna, X. M. (2024). METABOLIK SINDROMI VA QON BOSIMI BOR BEMORLARDA O'ZGARISH XUSUSIYATLARI BAHOLASH: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 187-196.
43. Qilichovna, A. M., & Nematilloevna, X. M. (2024). TIBBIYOT TILI HISOBLANMISH LOTIN TILINI SAMARALI O'RGANISH OMILLARI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 197-206.
44. Abdurashitovich, Z. F. (2024). APPLICATION OF MYOCARDIAL CYTOPROTECTORS IN ISCHEMIC HEART DISEASES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 152-159.
45. Abdurashitovich, Z. F. (2024). ASTRAGAL O'SIMLIGINING TIBBIYOTDAGI MUHIM AHAMIYATLARI VA SOG'LOM TURMUSH TARZIGA TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 111-119.
46. Abdurashitovich, Z. F. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL ASPECTS OF THE DEEP VEINS OF THE HUMAN BRAIN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(6), 203-206.
47. Abdurashitovich, Z. F. (2024). THE RELATIONSHIP OF STRESS FACTORS AND THYMUS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(6), 188-196.
48. Abdurashitovich, Z. F. (2024). MIOKARD INFARKTI UCHUN XAVF OMILLARINING AHAMIYATINI ANIQLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 83-89.
49. Rakhmatova, D. B., & Zikrillaev, F. A. (2022). DETERMINE THE VALUE OF RISK FACTORS FOR MYOCARDIAL INFARCTION. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI/ JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 1(4), 23-28.

50. Togaydullaeva, D. D. (2022). ARTERIAL GIPERTONIYA BOR BEMORLARDA KOMORBIDLIK UCHRASHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 32-35.
51. Togaydullaeva, D. D. (2022). Erkaklarda yurak ishemik kasalligining kechishida metabolik sindrom komponentlarining ta'siri. *Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya*, 1(4), 29-34.
52. Dilmurodovna, T. D. (2023). MORPHOLOGICAL ASPECTS OF THE THYROID GLAND IN VARIOUS FORMS OF ITS PATHOLOGY. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149)*, 1(8), 428-431.
53. Dilmurodovna, T. D. (2023). Morphological Signs of the Inflammatory Process in the Pancreas in Type I and II Diabetes Mellitus. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(11), 24-27.
54. Dilmurodovna, T. D. (2023). КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЕ ВОСПАЛИТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЕ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ I И II ТИПА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 173-177.
55. Khafiza, J., & Dildora, T. (2023). Frequency of Comorbid Pathology among Non-Organized Population. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(4), 260-266.
56. Dilmurodovna, T. D. (2023). Clinical and Diagnostic Features of the Formation of Arterial Hypertension in Young People. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 41-46.
57. Dilmurodovna, T. D. (2024). DIABETES MELLITUS IN CENTRAL ASIA: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 204-213.
58. Тогайдуллаева, Д. Д. (2024). ОБЩИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЕ САХАРНОГО ДИАБЕТА В СРЕДНЕЙ АЗИИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 193-204.
59. Tog'aydullaeva, D. D. (2024). GIPERTENZIYA BOR BEMORLARDA MODDALAR ALMASINUVINING BUZULISHI BILAN KELISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 130-137.
60. Dilmurodovna, T. D. (2024). FACTORS CAUSING ESSENTIAL HYPERTENSION AND COURSE OF THE DISEASE. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 138-145.
61. Dilmurodovna, T. D. (2024). PREVALENCE INDICATORS OF ARTERIAL HYPERTENSION IN THE POPULATION. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(4), 78-87.
62. Тогайдуллаева, Д. Д. (2024). ИШЕМИЧЕСКАЯ БОЛЕЗНЬ СЕРДЦА, МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЛЕЧЕНИЯ СТЕНОКАРДИИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 107-115.
63. Dildora, T. (2021, June). CHRONIC RENAL FAILURE. In *Archive of Conferences* (pp. 85-89).
64. Tog'aydullayeva, D. D. (2024). MORPHOLOGICAL ASPECTS OF ANEMIA IN SOMATIC DISEASES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(4), 212-219.